

UDK:330.5  
**Sapayeva Fazilat Norbayevna**  
**Urganch Ranch texnologiya universiteti**  
**Iqtisodiyot fakulteti o'qituvchisi.**  
**[fazilat1986@gmail.com](mailto:fazilat1986@gmail.com)**  
**+998942300565**

## **XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH HAMDA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.**

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonda qulay investitsion muhitni shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasining 26-maqсадидида mamlakatimiz mintaqalarida investitsiya muhitini yaxshilash masalasi quyidagicha ta'kidlab o'tilgan: "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollar, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish". Shunday ekan, O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, ish o'rinnlari yaratish va texnologik innovatsiyalarni joriy etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar va ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslar, investitsiya jozibadorligi, iqtisodiy o'sish, soliq siyosati, xorijiy kapital, investitsiya infratuzilmasi, xorijiy investorlar.

**Аннотация.** В новом Узбекистане реализуются масштабные реформы по созданию благоприятного инвестиционного климата. В 26-й цели стратегии развития, выдвинутой Президентом Республики Узбекистан, вопрос улучшения инвестиционного климата в регионах нашей страны обозначен следующим образом: «Принять меры по дальнейшему улучшению инвестиционного климата в стране и повышению ее привлекательности, привлечь в течение ближайших пяти лет 120 млрд долларов США инвестиций, в том числе 70 млрд долларов США иностранных инвестиций». Поэтому обеспечение постоянного улучшения благоприятного инвестиционного климата в Узбекистане является приоритетной задачей. Привлечение и эффективное использование иностранных инвестиций играет важную роль в развитии экономики страны. В статье анализируется важность иностранных инвестиций для экономического роста, создания рабочих мест и технологических инноваций. Рассмотрены условия и факторы, влияющие на привлечение инвестиций. В нем также подчеркивается необходимость эффективного управления иностранными инвестициями и содействия экономическому росту.

**Ключевые слова:** Иностранные инвестиции, экономическое развитие, улучшение инвестиционного климата, финансовые ресурсы, инвестиционная привлекательность, экономический рост, налоговая политика, иностранный капитал, инвестиционная инфраструктура, иностранные инвесторы.

**Abstract.** Large-scale reforms are being implemented in the new Uzbekistan in the areas of creating a favorable investment climate. The 26th goal of the development strategy put forward by the President of the Republic of Uzbekistan highlights the issue of improving the investment climate in the regions of our country as follows: "Further improve the investment climate in the country and increase its attractiveness, take measures to attract 120 billion US dollars, including 70 billion dollars of foreign investment in the next five years". Therefore, ensuring the systematic

improvement of the favorable investment climate in Uzbekistan is a priority task. Attracting and effective use of foreign investment plays an important role in the development of the country's economy. This article analyzes the importance of foreign investment in economic growth, job creation and the introduction of technological innovations. The conditions and influencing factors for attracting investment are considered. The need for effective management of foreign investment and its contribution to economic growth is also emphasized.

**Keywords:** Foreign investment, economic development, improvement of the investment climate, financial resources, investment attractiveness, economic growth, tax policy, foreign capital, investment infrastructure, foreign investors.

**I.Kirish.** Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki ular orqali korxonalarning kapitali ortadi va bu mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, iqtisodiy o'sishga olib keladi. Shuning uchun mamlakat iqtisodiyotiga ko'proq investitsiya jalg qilish va ulardan samarali foydalanish zarur. Barcha mamlakatlar yuqori o'sish sur'atlariga erishishni maqsad qilib qo'yadi, bu esa yuqori investitsiya stavkalariga (yuqori jamg'armalarga) erishishni talab qiladi.[1] Uzoq muddatda iqtisodiy o'sish qashshoqlikni kamaytiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki jamg'armalar kam bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun xorijiy investitsiyalarga zaruriyat tobora kuchayadi. Shu sababli, davlatlar o'rtasida xorijiy investitsiyalarni jalg qilish uchun raqobat doimo mavjuddir.[2] Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarning barcha turlari ma'qullanmaydi. Xorijiy investitsiyalarning davomiyligi va tabiat qabul qiluvchi mamlakat uchun juda muhimdir. Qisqa muddatli portfel investitsiyalari tezda o'zgarib, mezbon mamlakatlarda iqtisodiy tebranishlarga olib kelishi mumkin, bu esa istalmagan holatdir, chunki barqaror rivojlanish uchun makroiqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli investitsiyalar zarur hisoblanadi. Shu sababli mamlakatlар o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalg qilishda global raqobat mavjud. Ushbu raqobatda g'alaba qozonish uchun mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni qondirishlari kerak.

Tadqiqotning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar toifasiga kirish uchun ikki asosiy talab mavjud: iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish. Iqtisodiy o'sish muhim bo'lsa-da, ijtimoiy rivojlanish uchun yetarli emas. Ijtimoiy rivojlanish qashshoqlik, ishsizlik, daromad taqsimoti, sog'liqni saqlash va ta'lif kabi ko'rsatkichlarni yaxshilashni talab qiladi. Iqtisodiy o'sishni kuchaytirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy jamg'armalar yetarli bo'lmaydi, shuning uchun ular xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga muhtoj bo'ladilar.

Tadqiqotning asosiy vazifalari xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda ishtirop etuvchi omillarni aniqlash, investitsiyalarni samarali boshqarish va ulardan foydalanishning usullarini ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish, xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik ta'sirini baholash hamda xorijiy investitsiyalarni jalg qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Xorijiy sarmoyaning iqtisodiy mohiyati xorijiy investorlarning daromad olish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotiga kapital qo'yishidir. Chet el investitsiyalari turli shakllarda bo'lishi mumkin: to'g'ridan-to'g'ri (biznesda to'g'ridan-to'g'ri ishtirop etish yoki kompaniyaning aktsiyalarini sotib olish) yoki portfel (kompaniya boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan aksiyalar yoki obligatsiyalarini sotib olish).

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar nafaqat mablag'larni kiritadi, balki texnologiyalarni olib keladi, malakali ishchi kuchiga talabni oshiradi, ta'limni rivojlantiradi va bandlikni ta'minlab, qashshoqlikni kamaytiradi. Bundan tashqari, investitsiyalar madaniy transferlarni ham rag'batlantiradi. Shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda ijtimoiy o'zgarishlarga hissa qo'shadi. Ijtimoiy sharoitlar va investitsiyalar o'rtasida bog'liqlik mavjud, chunki yaxshi ijtimoiy sharoitlar mamlakatni investitsiya qilish uchun tanlashda investorlar qarorlariga ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatga investitsiya jalg qilishda bir qator omillar muhim rol o'ynaydi. Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga bir necha yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ular mamlakatga kapital oqimini jalg qilish imkonini yaratadi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi korxonalar ochish va ish o'rinalarini yaratishga yordam beradi. Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar yangi texnologiyalar, zamonaviy ishlab chiqarish usullari va boshqaruv tajribalarini olib keladi, bu esa iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular davlat byudjetini to'ldirishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy va infratuzilma loyihamini amalga oshirish imkonini beradi.[3]

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning bir qancha shakllari mavjud:[4]

- ulush qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish;
- 100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish;
- yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalari va filiallarni tashkil etish;
- konsessiya va lizing shartnomalari tuzish;
- tenderlar e'lon qilish;
- erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish;
- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

## **II.Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va ularni samarali boshqarish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar mavjud. Levine va Renelt (1992)ning tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib, ular yuqori darajadagi jamg'armalar orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Dollar va Kraay (2004) esa xorijiy investitsiyalarning uzoq muddatda qashshoqlikni kamaytirishga yordam berishini ta'kidlaydilar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy mablag'larni kiritish, balki yangi texnologiyalarni olib kelish va malakali ishchi kuchini yaratish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarning samarali foydalanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning mos bo'lishi zarur. Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, Aghion va Howitt (2009), xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda makroiqtisodiy barqarorlik, siyosiy barqarorlik, huquqiy tizimning samarali ishlashi va savdo erkinligi kabi omillarning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Shuningdek, yana bir tadqiqotchi A.A.Abdurahmonov tomonidan xorijiy investitsiyalarning asosiy turlari, ularni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotidagi funksiyalari, iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi omillari va foydalari ko'rib chiqiladi[5]. Shu bilan bir qatorda S.R.Allayorov mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash masalalari, shuningdek, uni amalga oshirish bo'yicha iqtisodiyotga faol xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning ustuvor yo'llari masalalarini tahlil qilgan[6]. Yana bir tadqiqotchi H.A.Mamaraimova xorijiy investitsiyalarning mohiyati va jalg qilish sabablarini o'rganib, chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kirishi, ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishimi rag'batlantirgan holda jalg qilinishi, lekin chet el kapitalini jalg qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmasligi mumkinligini tahlil qilgan. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlar bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taaluqlidir. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlarini ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarishini talalb etishini ta'kidlaydi[7].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsion muhitni yaratish bilan bog'liq jihatlar A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Muminov, I.Sh.Mustafakulov, B.Ruzmetov, D.G.G'ozibekov, E.I.Nosirov, B.B.Valiyev, U.A.Otajonov kabilarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

## **III.Tadqiqot metodologiyasi.**

Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va ulardan samarali foydalanish shart-sharoitlari va omillarining iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini o'rganish uchun tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi va tadqiqot jarayonida bir qancha metodlardan kengaytirilgan holda foydalaniladi. Bundan asosiy maqsadi - xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ta'sirini, ularni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni va omillarni aniqlashdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning iqtisodiy,

siyosiy va ijtimoiy sharoitlarini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'sirini o'lchash va ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga qanday hissa qo'shishini aniqlash, shuningdek, mamlakatlar o'rtasida xorijiy investitsiyalarni jalgilishdagi raqobatni tahlil qilish hamda xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish va ulardan yuqori foyda olish uchun zarur siyosatlarni tavsiya etish kabi maqsadlarga erishishga imkon beradi.

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya usullaridan foydalanilgan.

#### **IV.Tahlil va natijalar:**

Mamlakatga investitsiya jalgilishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'p omillarga bog'liq. Avvalambor investitsiyalar hajmi olingen daromadni iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishiga bog'liq. Aholini o'rtacha daromadi past bo'lgan holda ularning asosiy qismi (70 - 80%) iste'molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o'sib borishi jamg'arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo'ladi. Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o'sishiga olib keladi va aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo'lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta'minlaganda va kafolatlaganda bajariladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'rileyotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha. Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingen mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o'rtacha foiz stavkasini o'sishi investitsiyalash jarayonini susayishiga olib keladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi foydasi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlaniruvchi omillar qisqarib boradi.[8]

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, yuqori jamg'arish me'yoriga ega bo'lgan mamlakatlar, boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan holda, odatda, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ega bo'lishadi. Milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini ko'paytirish va uning iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi rolini oshirishning muhim zaruriy shartlaridan biri – bu jamg'arish me'yoring nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisoblanadi. Jamg'arish me'yori barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. 2003-2008 yillarda rivojlangan mamlakatlarda YalMning o'rtacha o'sish sur'atlari 3,4 %ni, jamg'arish me'yori 22,5 %ni tashkil etgan. Jamg'arish me'yoring o'sishi bilan YalMning qo'shimcha o'sish sur'ati ham ortib boradi. Jumladan, jamg'arish me'yori 25 %dan ortiq bo'lgan mamlakatlarda YalMning qo'shimcha o'sish sur'ati o'rtacha 4,8 %ga teng bo'lgani holda, jamg'arish me'yori 30 %dan ortiq mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 8,7 %ni tashkil etgan. Xitoy, Janubiy Koreya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda oxirgi 15 yil davomida kuzatilgan o'rtacha 10 % li iqtisodiy o'sish davrida jamg'arma ulushining o'rtacha qiymati 30 %ni tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, bir yilda 6 foizdan ortiq iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun milliy jamg'armalar YalMning kamida 25 %ini, investitsiyalar esa 30 %ini tashkil etishi kerak. Demak, iqtisodiyotda mavjud bo'lgan jamg'arma ulushi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar darajasidan yuqori bo'lsada, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri nisbatan past holatni namoyon etmoqda. Shu munosabat bilan jamg'armadan samarali foydalanish asosida barqaror iqtisodiy o'sish davomiyligini ta'minlash uchun, eng avvalo, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanirish asosida mavjud aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga investitsiya sifatida kirib kelishini faollashtirish hamda tarmoqlararo kapital oqimini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini mukammallashtirish asosida korxona jamg'armalarining investitsiyaga aylanish samaradorligini oshirish lozim.[9]

**2023-yilda moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar[10]**

<b>№</b>	<b>Hududlar nomi</b>	jami investitsiyalar, mldr. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan, foizda)					
			Respublika budjeti	korxona va tashkilotlar mablag'i	aholi mablag'i	xorijiy investitsiya va	Tiklanish va taraqqiyot jamg' armasi	tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag' lari
<b>1.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>352064,1</b>	<b>5,8</b>	<b>24,1</b>	<b>9,5</b>	<b>53,4</b>	<b>0,4</b>	<b>6,3</b>

Mazkur jadvalga asosan, tahlil qilinayotgan yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami investitsiyalar, 352064,1 mldr. so'mni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich moliyalashtirish manbalari bo'yicha respublika budgetiga 5,8 foiz, korxona va tashkilotlar mablag'iiga 24,1 foiz, aholi mablag'iiga 9,5 foiz, xorijiy investitsiya va kreditlarga 53,4 foiz, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga 0,4 foiz va tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lariga 6,3 foiz kabi ulushlarga ega.

Investitsiya muhitini tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, valyuta siyosati, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhitini investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lган imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan vogelikdir.

Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat. Respublikada siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investitsiya muhitining yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo'lishi xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning zaruriy shartidir. Investitsiya muhitini investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiylar mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilagini ta'minlab beradi. Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ta'kidlash joizki, investitsiya muhitiga ayrim qonunlarning yoki me'yoriy hujjalarning to'laqonli bo'lmasligi salbiy ta'sir etadi. Bunday kamchiliklarning mavjudligi investorning o'z istiqbolini belgilash, qo'yilmaning foydalilik darajasini aniqlash borasidagi qobiliyatini kamaytiradi. Agar investor investitsiya muhitidan qoniqmasa, uning asosiy maqsadi xavf ostida qoladi, ya'ni investitsiyalash natijasida olinishi ko'zda tutilgan daromadning risk darajasi yuqori bo'ladi. Albatta, bunday sharoitda u investitsiyalashni istamaydi. Bu ma'lum omillarning ijobiy yoki salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va ulardan samarali foydalanish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlar zarur:[10]

- 1) **Iqtisodiy barqarorlik** - xorijiy investorlarga ishonch berish uchun mamlakat iqtisodiyoti barqaror bo'lishi kerak. Inflyatsiya darajasi past, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar esa investorlarni jalg qilishda muhim rol o'ynaydi.

- 2) **Soliq va huquqiy muhit** - investitsiya muhitining samarali bo‘lishi uchun davlat soliq siyosati, huquqiy bazasi va xorijiy investorlar uchun imtiyozlarni yaratishi zarur. Xorijiy sarmoyadorlar o‘z investitsiyalarining xavfsizligini ta’minlashni xohlashadi, shuning uchun adolatli va aniq qonunchilik tizimi muhimdir.
- 3) **Infratuzilma** - yaxshi rivojlangan transport, kommunikatsiya va energetika infratuzilmasi xorijiy investorlar uchun muhimdir. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarish va tarqatish jarayonlarini osonlashtiradi.
- 4) **Samarali moliyaviy tizim** - xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun mustahkam va ishonchli moliyaviy tizim zarur. Bank tizimi, moliyaviy resurslar va kreditlar tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak.
- 5) **Ijtimoiy va siyosiy barqarorlik** - ijtimoiy va siyosiy barqarorlik xorijiy sarmoyadorlar uchun ahamiyatlari omil hisoblanadi. Xavfsizlik muammolari va siyosiy beqarorlik investitsiya oqimlarini to‘xtatishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish uchun bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur:[11]

- Texnologiya va bilim transferi - xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ilg‘or texnologiyalarni mamlakatga olib kelish juda muhimdir. Bu investitsiyalar orqali yangi texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkin.
- Ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish - xorijiy investitsiyalar ko‘pincha yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratishga, eksport salohiyatini oshirishga va xorija eksportni kengaytirishga yordam beradi. Buning natijasida mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlanadi va global bozorda raqobatbardoshligini oshiradi.
- Xususiy sektorni rivojlantirish - xorijiy investitsiyalar xususiy sektorni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Yangi bizneslar tashkil etiladi, kichik va o‘rtacha bizneslar rivojlanadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.
- Mehnat bozori va ijtimoiy ahvolni yaxshilash - xorijiy investitsiyalar yangi ish o‘rinlari yaratadi, bu esa aholining ish bilan ta’milanishiga yordam beradi. Shuningdek, mehnat bozori yaxshilanadi va ijtimoiy farovonlik ko‘tariladi.

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar, asosan, to’rt guruha bo‘linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi:

#### **Investitsiya muhiti holatini belgilovchi kengaytirilgan omillar.**

Nº	Omillar guruhlari	Omillarning turlari
1.	SIYOSIY OMILLAR	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Davlatning investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar bo‘yicha siyosati;</li> <li>❖ Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi;</li> <li>❖ Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo‘silganlik darajasi</li> <li>❖ Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi;</li> <li>❖ Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to‘qnashuvlar, qo‘sni davlatlarning osoyishtaligi);</li> <li>❖ Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati;</li> <li>❖ Davlat apparatining samarali ish yuritishi;</li> <li>❖ Ko‘p partiyaviylik va siyosiy guruhlarning mavqeい;</li> <li>❖ Soliq, valyuta, narx, pul-kredit siyosatining investitsiya siyosatiga uyg‘unligi;</li> <li>❖ Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog‘lomlashtirish bo‘yicha siyosati ko‘lami.</li> </ul>
2.		<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Mamlakatning iqtisodiy ahvoli;</li> <li>❖ Inflyatsiya darajasi;</li> <li>❖ Soliq imtiyozlari;</li> <li>❖ Bojxona tartibi;</li> </ul>

	IQTISODIY OMILLAR	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Mamlakatning tabiiy va xom ashyo resurslari holati;</li> <li>❖ Ishchi kuchi holati va qiymati;</li> <li>❖ Ishchi kuchidan foydalanish tartibi;</li> <li>❖ Muayyan tovarlar uchun talab va taklif;</li> <li>❖ Raqobat va bahoning erkinligi;</li> <li>❖ Valyuta konvertatsiyasi va milliy valyuta kursining barqarorligi;</li> <li>❖ Bank foiz stavkalari;</li> <li>❖ Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalar;</li> <li>❖ Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo'llari, iqlim sharoiti)</li> </ul>
3.	IJTIMOY OMILLAR:	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Xususiy mulk hamda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati;</li> <li>❖ Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli;</li> <li>❖ Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi;</li> <li>❖ Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat;</li> <li>❖ Aholining savodxonlik darajasi;</li> <li>❖ Ishchi-mutaxassislar ko'nikmalari malakasi, tajribalarining o'sib borishi va unga intilish;</li> <li>❖ Yangiliklar va turli xil ixtirolargacha aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi.</li> </ul>
4.	HUQUQIY OMILLAR	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Investitsiya faoliyati huquqiy asoslарining mustahkamlik darajasi;</li> <li>❖ Investitsiya faoliyatini bevosita ta'minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi;</li> <li>❖ Investitsiya faoliyatining me'yoriy asoslari (farmonlar, qarorlar, qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalar va h.k.).</li> </ul>

**V.Xulosa.** Xulosa o'rnda shuni aytish kerakki, xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali ishlatish juda zarur. Buning uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaxshilash, huquqiy muhitni takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va texnologik transferni rag'batlantirish lozim. Yaxshi investitsiya muhitini yaratish orqali O'zbekiston nafaqat xorijiy kapitalni jalb qilishi, balki o'z iqtisodiyotini mustahkamlash va global raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Ularning oshishi orqali yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish mumkin. Xorijiy investitsiyalar mamlakatda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi korxonalarni tashkil etish va yangi ish o'rnlari yaratishga yordam beradi. Ihsizlik darajasi pasayishi bilan aholi daromadlari oshadi va natijada aholi farovonligi yaxshilanadi. Investitsiyalar, shuningdek, yalpi ichki mahsulotning muhim qismini tashkil etadi, shuning uchun xorijiy investitsiyalarning ko'payishi yalpi investitsiyalarni oshiradi va bu, o'z navbatida, yalpi ichki mahsulotning o'sishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalar shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi; ularning ko'payishi bilan eksport salohiyati ham oshadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim bo'lib, ular qo'shimcha moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlaydi, ayniqsa, ichki kapital yetishmaydigan hollarda. Bu birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjud korxonalarini yangilash bilan bog'liq bo'ladi. Ikkinchidan, xorijiy kompaniyalar ko'pincha ilg'or texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini olib keladi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion rivojlanishni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, xorijiy kompaniyalar boshqa davlatlarda faoliyat yuritib, soliq to'laydi, bu esa qabul qiluvchi davlat byudjetining daromadlarini oshiradi hamda xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat xalqaro aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa eksport va importni diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Levine va Renelt, 1992.
2. Dollar va Kraay, 2004
3. <https://scienceweb.uz/publication/2045>.
4. <https://zenodo.org/records/7643665>
5. publication/387038319\_XORIJIY\_INVESTITSIYALARING\_IQTISODIY\_MOHI  
YATI\_VA\_UNING\_IQTISODIYOTNI\_RIVOJLANTIRISHDAGI\_AHAMUYATI.
6. file:///C:/Users/user/Downloads/mamlakat-iqtisodiy-o-sishini-ta-minlashda-xorijiy-investitsiyalarni-jalb-qilishning-ustuvor-yo-llari.pdf
7. <https://zenodo.org/records/7643665>.
8. [Risola\\_1Nuriddin\\_org.pdf](#)
9. [https://www.slideshare.net/slideshow/xorijiy\\_investitsiyalardocx/266260618](https://www.slideshare.net/slideshow/xorijiy_investitsiyalardocx/266260618)
- 10.<https://stat.uz/uz/default/choraklik-natjalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>
- 11.[https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/iqtisodiyotni\\_rivojlantirishda-xorijiy-investitsiyalarning-roli](https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/iqtisodiyotni_rivojlantirishda-xorijiy-investitsiyalarning-roli)
- 12.file:///C:/Users/user/Downloads/mamlakat-iqtisodiy-o-sishini-ta-minlashda-xorijiy-investitsiyalarni-jalb-qilishning-ustuvor-yo-llari.pdf